

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
ТОМ 4, НОМЕР 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUIJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ХАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O'ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОВА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O'ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVIVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G'OYAVIY ASOSLARI".....	51
2	Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li XIVA XONLIGI QOZILIK HUIJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI".....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA'ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

PSIXOLOGIYA


- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

Zaripov Xurshid Zakir o'g'li

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD xurshid_zaripov@mamunedu.uz

Ruzmetova Gulira'no AtabekovnaMa'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD
gulirano_ruzmetova@mamunedu.uz**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH:
O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707603>

Anotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'siri, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlarining rivojlanish holati va inson kapitalini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada resurslar asosidagi ko'rinish va dinamik qobiliyatlar nazariyasi metodologiyasidan foydalanilgan. Maqola natijalariga ko'ra, inson kapitaliga davlat investitsiyalari raqamli iqtisodiyot o'sishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston misolida tahlil shuni ko'rsatadiki, 2023-yil oxiriga kelib internet foydalanuvchilari soni 30 millionga yetgan bo'lib, aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylanib bormoqda.

Kalit so'zlar: inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, ta'lim, bandlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние человеческого капитала на экономический рост в условиях цифровой экономики, текущее состояние процессов цифровой трансформации в Узбекистане, а также вопросы формирования человеческого капитала. В работе использована методология ресурсно-ориентированного подхода и теории динамических способностей. По результатам исследования установлено, что государственные инвестиции в человеческий капитал являются ключевым фактором обеспечения роста цифровой экономики. Анализ на примере Узбекистана показывает, что к концу 2023 года число пользователей интернета достигло 30 миллионов, а повышение цифровой грамотности населения, подготовка квалифицированных кадров и развитие цифровой инфраструктуры становятся приоритетными направлениями государственной политики.

Ключевые слова: человеческий капитал, цифровая экономика, цифровая трансформация, образование, занятость.

Abstract. This article examines the impact of human capital on economic growth in the context of the digital economy, the current state of digital transformation processes in Uzbekistan, and issues related to the development of human capital. The study employs the methodology of the resource-based view and the dynamic capabilities theory. The findings indicate that public investment in human capital is a key factor in ensuring the growth of the digital economy. An analysis based on

the case of Uzbekistan shows that by the end of 2023, the number of internet users had reached 30 million, while improving digital literacy, training skilled personnel, and developing digital infrastructure are becoming priority areas of public policy.

Keywords: human capital, digital economy, digital transformation, education, employment.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib, inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish usullarini, balki mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikma va malakalar tarkibini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bu sharoitda inson kapitali — ya'ni kishilarning bilim, ko'nikma va salohiyati — raqamli transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatni raqamli iqtisodiyotga o'tkazishning muhim yo'llanmasi bo'lib, unda inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni taxminan 30 millionga yetdi, aholi orasida internetning kirib borishi esa 91 foizni tashkil etdi. Shunday bo'lsa-da, OTM bitiruvchilarining 59 foizi ish topmaganligi raqamli iqtisodiyot talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash muammosi hamon dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi uchta asosiy ilmiy manba tahlili asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining rolini o'rganish va O'zbekiston tajribasini baholashdan iborat. Maqola quyidagi savollarga javob beradi: raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining qanday xususiyatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi? Raqamli transformatsiya va korxonalar samaradorligi munosabatida inson kapitali qanday rol o'ynaydi? O'zbekistonda inson kapitalini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishda qanday muammolar mavjud?

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Inson kapitali nazariyasining asoslari Schultz, Becker va Lucas kabi iqtisodchilar tomonidan yaratilgan. Lucas inson kapitalini jamg'arish iqtisodiy o'sishning asosiy manbai ekanligini isbotlab, ta'lim va malaka oshirish investitsiyalarining uzoq muddatli samara berishi to'g'risida ilg'or nazariyalarni ishlab chiqqan.

Tuguskina va boshqalar ning tadqiqotiga ko'ra, raqamli iqtisodiyot "raqamli texnologiyalar, mahsulot va xizmatlar asosida shakllangan jami ishlab chiqarish hajmining bir qismi" sifatida tavsiflanadi. R. Preston McAfee fikrini keltiradi: "Inson kapitali korporatsiyalar qiymatining 50 foizini tashkil etadi. Biz inqilob narsalarga taalluqli deb o'ylaymiz, lekin aslida u odamlarga oid." Bu fikr inson kapitalining raqamli iqtisodiyotdagi markaziy o'rnini aniq ifodalaydi.

Tranning tadqiqoti endogen o'sish nazariyasi asosida raqamli transformatsiya iqtisodiyotida inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini matematik model orqali isbotlaydi. Olim soliq siyosatining ikkita ta'sirini ajratib ko'rsatadi: birinchidan, soliqlar uy xo'jaliklarining daromadini kamaytirish orqali jismoniy kapitalni pasaytiradi; ikkinchidan, inson kapitaliga davlat sarmoyasini oshirish orqali mehnat unumdorligini yaxshilaydi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Kampoowale va boshqalar Hindistonning kichik va o'rta korxonalarida misolida raqamli transformatsiya va korxonalar samaradorligi munosabatlarida inson kapitalining vositachilik rolini tadqiq etgan. Resurslar asosidagi ko'rinish va dinamik qobiliyatlar nazariyasi doirasida olib borilgan ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki: raqamli imkoniyatlar va boshqaruv ko'magining raqamli transformatsiyaga ta'siri kuchliroq bo'lib, inson kapitali raqamli transformatsiya va korxonalar samaradorligi munosabatini to'liq vositachilik qiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlarni umumlashtirganda, uchta asosiy xulosa kelib chiqadi: inson kapitali raqamli iqtisodiyot o'sishining asosiy dvigatelidir; ta'lim va malaka oshirishga investitsiya qilish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi; raqamli transformatsiyaning korxonalar samaradorligiga ijobiy ta'siri ko'p jihatdan inson kapitalining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Ushbu tadqiqotda sifat tahlili metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqot uchta usulni birlashtiradi:

Birinchidan, adabiyotlar tanqidiy tahlili: yuqorida ko'rsatilgan uchta ilmiy manba ning asosiy xulosalari, metodologiyasi va natijalarini qiyosiy o'rganish amalga oshirildi.

Ikkinchidan, statistik ma'lumotlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining yillik hisobotlari va Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari tahlil qilindi. Jumladan, internet foydalanuvchilari soni, OTM bitiruvchilarining bandlik darajasi va raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari o'rganildi.

Uchinchidan, qiyosiy tahlil: O'zbekiston raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari xalqaro o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirish maqsadida rasmiy davlat hujjatlari, xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" tahlilga tortildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, raqamli infratuzilma sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Quyidagi jadvalda asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan:

1-jadval

O'zbekistonda raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari²⁷

Ko'rsatkich	2021-yil	2023-yil
Internet foydalanuvchilari soni	27,2 mln	30 mln
Shundan: mobil internet	25,3 mln	26,5 mln
Uyda internet ishlatuvchilar ulushi	–	67%
Mobil aloqa qamrovi	95%	99%
Keng polosali mobil internet	54%	98%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda raqamli infratuzilma jadal rivojlanmoqda. Biroq 2024-yilning birinchi yarmida 10 va undan katta yoshdagi aholining o'z uyida internetdan foydalanayotganlar ulushi 79,2 foizga yetgan bo'lsa-da, raqamli savodxonlik darajasi hali ham etarli emas. Bu holat Tuguskina va boshqalar tomonidan ta'kidlangan muammodan — shaharlarda va qishloq hududlarida raqamli ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqdan — kelib chiqadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimining raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, joriy holatda sezilarli bo'shliqlar mavjud. Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirining Qonunchilik palatasidagi axborotiga ko'ra, 2024-yilda oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining 59 foizi ish topolgani yo'q. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi tizimiy nomuvofiqlikni yaqqol namoyon etadi.

Tranning nazariy modeli shuni ko'rsatadiki, davlatning inson kapitaliga investitsiyasi mehnat samaradorligini oshirib, uzun muddatda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Agar soliq daromadlari oqilona taqsimlansa va ta'lim tizimi raqamli iqtisodiyot talablariga yo'naltirilsa, daromad ulushi hajmiga muvofiq foiz miqdorida iqtisodiy o'sish sur'ati oshishi mumkin. O'zbekiston misolida esa bu tamoyilning amaliyotga tatbiq etilishi hali qisman amalga oshirilmoqda.

2-jadval.

O'zbekistonda OTM bitiruvchilarining bandlik ko'rsatkichlari²⁸

Ko'rsatkich	Ma'lumot
2024-yil OTM bitiruvchilari soni	214 ming nafar

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz), Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari

²⁸ Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari


Ishga joylashganlar ulushi	41% (88 ming nafar)
Hali ishsiz bitiruvchilar	59% (126 ming nafar)
Bo'sh ish o'rinlari bilan mos keluvchilar	95 ming nafar
2024-yilda ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan	5 million kishi

Kampoovale va boshqalarning Hindiston kichik va o'rta korxonalari bo'yicha empirik tadqiqoti bir qancha muhim xulosalarga olib keladi. Raqamli transformatsiya bevosita korxonalar samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ($\beta = 0,598$, $p < 0,05$). Shu bilan birga, raqamli transformatsiya inson kapitaliga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatib, inson kapitali o'z navbatida korxonalar samaradorligiga musbat ta'sir qiladi ($\beta = 0,202$, $p < 0,05$). Eng muhimi, inson kapitali raqamli transformatsiya va korxonalar samaradorligi munosabatini vositachilik qiladi.

Bu natijalar O'zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Mahalliy kichik va o'rta korxonalar uchun raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish avvalo inson kapitalini rivojlantirishga bog'liq. Raqamli ko'nikmalar, boshqaruv samaradorligi va tashkiliy madaniyat raqamli transformatsiyaga tayyorlik darajasini belgilab beradi.

3-jadval

O'zbekistonda IT sohasi va umumiy mehnat bozori ish haqi taqqoslamasi²⁹



Mehnat bozori tahlili IT sohasidagi ish haqi tafovutini yaqqol ko'rsatadi. IT tahlilchilar uchun taklif qilinayotgan o'rtacha maksimal ish haqi 32,2 mln so'mni, dasturchilar uchun 23,4 mln so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar 2024-yil yakunida respublika bo'yicha qayd etilgan o'rtacha ish haqi — 5,3 mln so'm bilan solishtirganda 4–6 barobar yuqori darajani anglatadi. Bunday keskin farq raqamli ko'nikmalarga ega kadrlar uchun mehnat bozorida yuqori talab borligini va inson kapitaliga investitsiya qilishning bevosita daromad oshirishga olib kelishini isbotlaydi. Bu holat Tran (2024) ning nazariy modelini O'zbekiston mehnat bozori misolida tasdiqlaydi: davlatning inson kapitaliga sarflagan investitsiyasi malakali kadrlar unumdorligini oshiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, IT sohasi bandligi ham jadal o'sib bormoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda IT sohasida 100 mingdan ortiq kishi rasman band bo'lib, IT bozori hajmi 1 milliard dollarga yaqinlashmoqda. Bundan tashqari, IT sohasida o'zini o'zi band qilgan frilanserlar soni 70 mingdan oshgan bo'lib, ular 2022-yilda 11,8 million dollar

²⁹ Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi, KPMG (2024); IT Park (2023)

daromad olgan — bu 2019-yilga nisbatan 7,4 barobar ko'p ko'rsatkich (IT Park, 2023). Mazkur raqamlar Kampoowale va boshqalar (2025) tadqiqotidagi xulosani — raqamli transformatsiyaning inson kapitaliga ijobiy ta'sirini — O'zbekiston misolida empirik tarzda qo'llab-quvvatlaydi.

Uchta manbaning xulosalari asosida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlanadi:

Ta'lim tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish. Tranning nazariy modeli ta'lim sifatiga investitsiya qilish natijasida malakasiz ishchilarning samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligini isbotlaydi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashda AKT yo'nalishlarining ulushini oshirish, dasturlash va ma'lumotlar tahlili bo'yicha kurslar sonini ko'paytirish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish. Tuguskina va boshqala tomonidan keltirilgan R. Preston McAfee fikriga ko'ra: "Maktab yoki universitetda biron narsa o'rganib, keyin umr bo'yi shunday davom etish mumkin bo'lmaydi. Yangi ko'nikmalarni o'rganish, yangi texnologiyalardan foydalanish kerak bo'ladi. Bu uzluksiz jarayon bo'ladi." Bu tamoyilni O'zbekistonda amalga oshirish uchun kasb-malaka oshirish markazlari tarmog'ini kengaytirish va onlayn ta'lim platformalarini rivojlantirish zarur.

Shahar va qishloq orasidagi raqamli tafovutni kamaytirish. 2023-yilda O'zbekistonda 10 yoshdan katta aholining uyida internetdan foydalanishi 67 foizni tashkil etgan, ammo bu ko'rsatkich shahar va qishloq hududlarida sezilarli farqlanadi. Raqamli savodxonlikni kengaytirish dasturlari hududiy yondashuvni talab etadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining hal qiluvchi rolini uchta ilmiy manba va O'zbekiston milliy statistikasi asosida tahlil qildi. Asosiy xulosalar quyidagicha:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi inson kapitaliga sarflangan investitsiyalar bilan bevosita bog'liq. Tran ning matematik modeli shuni isbotlaydiki, davlat soliq daromadlarini inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin. Bu xulosa O'zbekiston uchun ham amal qiladi — ta'lim va malaka oshirishga qilingan davlat investitsiyalari raqamli iqtisodiyotda yangi qo'shilgan qiymat yaratuvchi ish o'rinlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, Kampoowale va boshqalarning empirik tadqiqoti raqamli transformatsiya va korxonalar samaradorligi munosabatini inson kapitalining to'liq vositachilik qilishini isbotlaydi. Bu O'zbekiston kichik va o'rta korxonalar uchun jiddiy amaliy xulosa beradi: raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritish faqat xodimlarning raqamli ko'nikmalari etarli darajada rivojlanganda samarali bo'ladi.

Uchinchidan, O'zbekistonda raqamli infratuzilma sohasida katta yutuqlarga erishilgan — internet foydalanuvchilari soni 2023-yilda 30 millionga yetib, mobil aloqa qamrovi 99 foizga ko'tarilgan. Biroq OTM bitiruvchilarining 59 foizining ishsizligi ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlikning hali ham mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda inson kapitalini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishning samarali yo'llarini belgilashda foydalanish mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun O'zbekiston kichik va o'rta korxonalarida raqamli transformatsiya va inson kapitali munosabatlarini keng empirik ma'lumotlar asosida tadqiq etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. B.A. Begalov, M.Q. Abdullayev. Raqamli iqtisodiyot darslik. Toshkent 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

4. Ayupov R.H., Boltaboyeva G.R. (2020). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 575b.
5. Gulyamov S.S., Ayupov R.H. (2020) Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. - T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, - 510 b.
6. Xaydarov B.X., Saitov S.A. (2022) Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba. // Academic Research in Educational Sciences, Volume3, Issue5. – 153 b.
8. Raqamli iqtisodiyot statistik ma'lumotlari, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].